



LAW-MAKING ACTIVITY: THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS

Saparbay Dauletbayevich Allambergenov

Associate Professor at the Institute for Advanced Training of the
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of
Philosophy (PhD) in Legal Sciences
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15049479>

ARTICLE INFO

Received: 14th March 2025
Accepted: 18th March 2025
Online: 19th March 2025

KEYWORDS

"law-making," "legislative
activity," "legislative
initiative."

ABSTRACT

This article analyzes the ideas of foreign and domestic legal scholars who have studied law-making activity as a subject of scientific research, and expresses personal opinions in this field. Additionally, the author's definition of the concept of "law-making" has been developed.

HUQUQ IJODKORLIK FAOLIYAT: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

Saparbay Dauletbayevich Allambergenov

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15049479>

ARTICLE INFO

Received: 14th March 2025
Accepted: 18th March 2025
Online: 19th March 2025

KEYWORDS

"qonun ijodkorlik", "huquq
ijodkorlik", "qonunchilik
tashabbusi".

ABSTRACT

Ushbu maqolada huquq ijodkorlik faoliyatini ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida o'rgangan xorijiy va mahalliy huquqshunos olimlarning g'oyalari tahlil etilgan hamda ushbu yo'nalishda shaxsiy fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, "huquq ijodkorlik" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, kishilik jamiyatida mavjud ijtimoiy munosabatlar axloq-odob qoidalari bilan bir qatorda, huquq normalari bilan ham tartibga solinadi. Ushbu huquq normalari esa, davlat mexanizmining hokimiyat va boshqaruv organlarining "qonun ijodkorlik", "huquq ijodkorlik" va "qonunchilik tashabbusi" faoliyatlari orqali hayotga tadbiq etiladi.

Qayd etish joizki, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining vakolatlari bir-biridan farq qilishi bilan birga, ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlari ham yuridik kuchiga ko'ra farqlanadi. Bu normativ-huquqiy hujjatlar ichida qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qabul qilingan qonunlar eng ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Davlat organlarining huquq ijodkorligi jamiyat boshqaruvini amalga oshirishning bir shakli sifatida boshqaruv tabiatiga ega ijtimoiy hodisa bo'lib, har qanday ijtimoiy jarayon singari ushbu jarayon ham ongli, aniq maqsadga yo'naltirilgan va huquqiy oqibatlarni belgilaydigan faoliyatdir. Shuningdek, mazkur jarayonlar amaldagi tegishli me'yorlar va tartiblar asosida amalga oshiriladi.



Fikrimizcha, huquq ijodkorlik faoliyatini ijtimoiy va huquqiy jarayon sifatida faqat huquq normalarini ishlab chiqish bilan bog'liq faoliyat deb chegaralanish noto'g'ri. Chunki bu jarayon yanada kengroq bo'lib, dastlab jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni chuqur tahlil etish orqali huquqiy tartibga solishga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, manfaatdor vakolatli subyektlarning keng ishtirokida (yoki individual tartibda) mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalari asosida huquq norma loyihalarini ishlab chiqish, samarali natijalarga erishish bo'yicha tanqidiy ruhda muhokama qilish, belgilangan tartibda qabul qilish va ijrosi ustidan qat'iy nazoratni o'rnatish, shuningdek, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning talablarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxslarni yuridik javobgarlikka tortish bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Fikrimizni davom ettirib, huquq ijodkorlik faoliyatini predmet sifatida ilmiy tadqiq etgan ayrim huquqshunos olimlarning fikrlariga qisqacha to'xtalamiz.

Xususan, professor X.T.Odilqoriyev, "huquq ijodkorligini vakolatli davlat idoralari va mansabdor shaxslarning huquq normalarini o'rnatish, o'zgartirish, takomillashtirish va bekor qilishga yo'naltirilgan maxsus faoliyat" deb hisoblaydi [1; B. 239]. Huquqshunos olim A.M.Xashimhonov esa, "huquq ijodkorlik faoliyatini jamiyat va davlat ehtiyojidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy munosabatlarni normativ-huquqiy tartibga solishga qaratilgan, davlat irodasi asosida amaldagi huquq normalarini o'zgartirish, bekor qilish va yangi huquq normalarini yaratishga qaratilgan rasmiy faoliyat" deb hisoblaydi [2; B. 16].

Fikrimizcha, har ikkala tushunchada davlatning huquq normalarini o'rnatish yoki ma'qullashi orqali huquqni qo'llash faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ayrim tadqiqotlarda hukumatning huquq ijodkorligi faoliyati bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilganiga guvoh bo'lamiz. Bularga qonunchilik tashabbus huquqini amalga oshirish bilan bog'liq yo'nalish, qaror va farmoyishlar qabul qilish, hukumatga bo'ysunuvchi tuzilmalarning normativ xususiyatga ega hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish faoliyatini tashkil etish hamda nazorat qilish, hukumatning bevosita xalqaro huquqiy shartnoma va kelishuvlarni tayyorlash va ishlab chiqishda qatnashishi hamda ushbu yo'nalishlardan eng asosiysi qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etish. Umuman olganda, hukumat faoliyati universal bo'lganligi uchun jamiyat hayotida sodir bo'layotgan va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha munosabatlarga o'zining huquqiy ta'sirini ko'rsatadi [3; S. 12-13]. Shu jihatdan bunday keng miqyosdagi faoliyatni boshqa biror-bir davlat organi amalga oshira olmaydi.

Nazarimizda, hukumatning huquq ijodkorlik faoliyati huquqni yaratishga qaratilgan rasmiy faoliyat shakli sifatida muayyan bosqichlardan iborat bo'lib, Konstitutsiya va qonun hujjatlar asosida davlat va ijro vakolatlarini amalga oshirish hamda ularni qo'llashni o'z ichiga oladi, deb ta'rif bersak bo'ladi.

Bundan tashqari, huquq ijodkorligi jarayonining uch bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, normativ hujjat loyihasini tayyorlash, muhokama qilish, qabul qilish, amalga kiritish. Bunda normativ hujjatning kuchga kirishi uning hal qiluvchi bosqichi deb baholangan. Shuningdek, huquq ijodkorlik va huquqni qo'llash faoliyati samaradorligini oshirish uchun ularning amalda bo'lish jarayonini belgilab beruvchi muayyan qoida, reglament bo'lishini e'tirof etadi [4; S. 6-7].



Huquqshunos olim A.M.Xashimhonov ijro etuvchi organlari tomonidan chiqariladigan hujjatlarni hokimiyat subyektlari doirasiga ko'ra uch bo'g'inga ajratadi. Xususan, "ijro etuvchi yuqori organi hukumat tomonidan chiqariladigan hujjatlar, ijro hokimiyatining markaziy organlari vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda agentliklar tomonidan chiqariladigan hujjatlar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan chiqariladigan hujjatlar" [5; B. 26]. Bu borada ilmiy-tadqiqotlar olib borgan Qozog'istonlik olim R.K.Naurizbayeva esa, hukumat qarorlarining yo'naltirilganlik ahamiyatidan kelib chiqib ularni, "umumrespublika ahamiyatidagi hujjatlar, mintaqa doirasidagi hujjatlar, sohalararo ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar, muayyan soha doirasidagi hujjatlar va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarga" ajratadi [6; S. 6-7].

Fikrimizcha, ushbu jarayonlarga ijro etuvchi organlar faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinadigan farmoyishlarni [7] ham kiritish maqsadga muvofiq.

Ko'p hollarda qabul qilingan qonunlarning samarali ijrosini ta'minlash va o'z vakolatlarini samarali amalga oshirish hamda ijro organlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun hukumatning qarorlari va farmoyishlari qabul qilinadi. Xususan, ijro hokimiyat organlari rahbarlari tomonidan qabul qilingan ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ham bevosita jamiyat hayotida ma'lum bir sohani tartibga solishda huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishiga sabab bo'ladi. Bu borada Ye.S.Slesareva, "boshqaruvning individual hujjatlari huquq sohaları normalari (ma'muriy, moliya, mehnat, fuqarolik) yordamida jamiyatga tadbiq etilsada, amaldagi qonunchilik hamda huquqni tadbiq etuvchi boshqaruv organlarning faoliyatini ifoda etuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi deb hisoblab, individual hujjatlar hukumat faoliyatini ifoda etayotganligini hamda bu faoliyatning aksi ekanligini, ya'ni shu orqali namoyon bo'lishini" uqtiradi [8; S. 13].

Ijro hokimiyat organlarida huquq ijodkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning ko'lamini kengligidan kelib chiqib, ushbu sohada o'z qarashlarini bildirgan olimlarning fikrlariga qisqacha to'xtalamiz. Jumladan, Yu.D.Rudkin, "huquq ijodkorlik subyektlarini quyidagicha to'rt guruhga ajratadi. Bularga, "tashabbuskor subyekt", "ishlab chiquvchi subyekt", "hal qiluvchi subyekt", "ijro etuvchi subyektlarga" bo'ladi [9; S. 9-10]. A.M.Xashimhonov esa, ushbu ta'rifga "huquq ijodkorlik subyektlarining barchasi faqatgina hukumat tarkibiy tuzilishining ichiga kirib ketishini" e'tirof etadi [10; B. 27].

Fikrimizcha, huquq ijodkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar guruhiga "dastlab jamiyat hayotida huquq normalariga bo'lgan ehtiyoj va talablarni o'rganuvchi subyektlar"ni ham kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Masalan, fuqarolar, nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda demokratik institutlarni kiritishimiz mumkin. Sababi, Yu.D.Rudkinning e'tirof etishicha huquq ijodkorlik subyektlari guruhiga "tashabbuskor subyektlar"ni kiritishi va bu jarayonda qonun hujjatlarga asosan qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlar doirasi bilan chegaralangan.

Nazarimizda, muallifning bu qarashlaridan tashqari ham huquq ijodkorlik subyektlari tizimida boshqa subyektlar ham bevosita va bilvosita ishtirok etishini qayd etishimiz mumkin. Bu subyektlar jumlasiga aynan davlat hokimiyatining vazifalari va vakolatlarini to'g'ridan to'g'ri amalga oshirmaydigan, ammo jamiyat hayotida huquqiy jihatdan tartibga solinmagan ijtimoiy bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha davlat hokimiyat va boshqaruv organlariga asosli



tashabbus bilan ishtirok etadigan subyektlarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu subyektlar qonun chiqaruvchi hokimiyat organiga saylangan deputatlar yoki hududiylik jihatdan saylangan (tayinlangan) senatorlarga asoslantirilgan takliflari bilan tashabbus ko'rsatishi ham mumkin.

Bildirilgan fikrlarimizdan kelib chiqib, "huquq ijodkorlik subyektlari" guruhini quyidagicha ajratamiz:

birinchidan, dastlab jamiyat hayotida huquq normalariga bo'lgan ehtiyoj va talablarni o'rganuvchi subyektlar;

ikkinchidan, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlar;

uchinchidan, huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiquvchi subyektlar;

to'rtinchidan, huquqiy hujjatlarni kuchga kirish vakolatiga ega bo'lgan va uning ijrosi ustidan nazorat qiluvchi subyektlar;

beshinchidan, huquqiy hujjatlarning ijrosini ta'minlovchi subyektlarga bo'lishimiz mumkin.

Ayrim manbalarda huquq ijodkorlik faoliyati keng ma'noda ta'riflangan. Xususan, huquq ijodkorligi davlatning jamiyat maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan va tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan faoliyat bo'lib, bunda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish ehtiyoji aniqlanishi, shu asosda unga mos bo'lgan yangi huquq normalar yaratilishi, amaldagilari o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi bo'yicha g'oyalar ilgari surilgan [11; S. 26].

Huquq ijodkorligi jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarning huquqiy hujjatlarni belgilangan tartibda shakllantirish va qabul qilishni qamrab oluvchi jarayon [12; S. 157]. Ushbu ta'rifda bir-biri bilan aloqador bo'lgan jarayonlar e'tirof etilgan.

Fikrimizcha, huquq ijodkorligi birinchidan, jamiyat hayotidagi mavjud ehtiyoj va talablarni davlat organi va tashabbus huquqiga ega bo'lgan barcha ishtirokchilar tomonidan aniqlanishi, ikkinchidan, davlat organi tomonidan mavjud ehtiyoj va talablarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy hujjatlarning shaklini belgilash orqali uning loyihalarini ishlab chiqishi, uchinchidan, belgilangan tartibda tegishli huquqiy hujjatlarni qabul qilish, zarur hollarda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish orqali takomillashtirish yoki bekor qilishga qaratilgan barcha uzviy o'zaro bog'liq jarayonlarni o'z ichiga qamrab olganligini qayd etishimiz mumkin.

Xulosamizda bildirilgan fikr va mulohazalarimiz asosida "*huquq ijodkorlik*" tushunchasini nazariy-huquqiy jihatdan yoritishga harakat qilamiz.

Huquq ijodkorlik – davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida umummajburiy huquq normalarni qabul qilish, o'zgartish va qo'shimchalar kiritish orqali yanada takomillashtirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquqiy faoliyatdir.

References:

1. *Odilqoriyev H.T., Tulteyev I.T., Azizov N.P.* Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. – Toshkent, 2009. – B. 239.



2. *Xashimhonov A.M.* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari: Yurid. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 16.
3. *Наурызбаева Р.К.* Правотворческая деятельность Правительства Республики Казахстан: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Алматы, 1995. – С. 12–13; *Xashimhonov A.M.* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari: Yurid. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 11.
4. *Рудкин Ю.Д.* Правотворческие производства: природа, структура, разновидности: Автореф. дис. ...канд.юр.наук. – Харьков. 1984. – С. 6–7.
5. *Xashimhonov A.M.* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari: Yurid. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – B.26.
6. *Наурызбаева Р.К.* Правотворческая деятельность Правительства Республики Казахстан: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Алматы, 1995. – С. 6-7.
7. *Izoh:* Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qonun hujjatlar asosida va ularni ijro etib, Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha hududida ijro qilinishi shart bo'lgan qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Reglamentiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari Vazirlar Kengashi Raisining farmoyishlari shaklida qabul qilinadi; Qoraqalpog'iston Respublikasining 1998-yil 29-yanvardagi «Mahalliy davlat hokimiyat to'g'risida»gi qonunning 5-moddasiga muvofiq, shahar va tuman hokimlari qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi. // URL – <http://sovminrk.gov.uz/uz/pages/show/6194>
8. *Слесарева Е.С.* Индивидуальные акты управления: Автореф. дис. ...канд. наук. –М., 1984. –С. 13.
9. *Рудкин Ю.Д.* Правотворческие производства: природа, структура, разновидности: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Харьков, 1984. – С. 9-10. // *Xashimhonov A.M.* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari: Yurid. fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2008. – B.27.
10. *Xashimhonov A.M.* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari: Yurid. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – B.27.
11. *Поленина С.В.* Законотворчество в Российской Федерации. – М., 1996. – С. 26.
12. *Общая теория государства и права. Академический курс. Т. 2.* – М., 1998. – С. 157.